



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI KAFEDRASI**

***“TIBBIYOT OLIY O'QUV YURTLARI  
TALABALARINI O'QITISHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARNING PEDAGOGIK  
JIHATLARI”***

*mavzusidagi o'quv-uslubiy anjuman*



**TOSHKENT-2023**

***“Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari” mavzusidagi o‘quv-uslubiy anjuman***

*2023 yil 15 noyabr kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari” mavzusidagi o‘quv-uslubiy anjumani materiallari to‘plami.*

**Tahrir hay’ati:**

**Baymuradov Shuhrat Abduljalilovich**

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b.

**Iskandarova Guzal Tulkinovna**

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini mudiri

**Samigova Nargiz Raimovna**

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini dotsenti

**Tashpulatova Munisa Nigmanjanovna**

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini katta o‘qituvchisi

**Moderatorlar:**

**Kurbanova Shaxnoza Irkinovna**

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini dotsenti

**Yusupxo‘jayeva Aziza Majidovna**

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini dotsenti

**Rashidov Valixon Akmaljonovich**

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini assistenti

**Xadjayeva Umida Abduxamid kizi**

Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasini assistenti

**To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifati uchun muallif(lar) javobgardir**

***“Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari” mavzusidagi o‘quv-uslubiy anjuman***

jarayoni oddiy ma’ruza o‘qishga nisbatan 3 marta samarali bo‘ladi. Agar ma’ruzada yuqoridagi uslublar (og‘zaki tushuntirish, qaytarish, o‘quv-vizual materiallar yordamida ko‘rsatish, talabadan o‘qishni talab qilish, tayanch iboralarni yozdirib borish) ma’lum bog‘liqli ketma-ketlik asosida birgalikda joriy etilsa o‘quv samarasi yanada ortadi.

Talaba berilayotgan ma’lumotlarni hayotiy tajribasi orqali taqqoslasa, bilim amaliyot orqali yetkazilsa, talabalarga doimiy ushbu materiallarni real hayotda kerak bo‘lishi tushuntirilsa, mashg‘ulotda mavzuni real hayot bilan bog‘lab talabalarning faol fikr bildirishlariga sharoit yaratilsa, mavzu bo‘yicha berilayotgan ma’lumotlarni talabalar tomonidan 80 %gacha o‘zlashtirishlariga erishish mumkin. Yaxshi pedagog o‘rtacha bir minutda 170 tagacha so‘z talaffuz etishi mumkin. O‘rtacha talaba minutiga 400 tagacha so‘zni o‘qishi va tushunishi mumkin. Bu shuni bildiradiki, o‘qituvchi ma’lumotlarni slaydlar ko‘rinishida yoki tarqatma materiallar ko‘rinishida tushuntirishdan oldin bersa, o‘qituvchi tushuntirguncha talabalar ushbu materiallarni ikki marta tez o‘qib ulguradilar. Talabalar o‘zlari ma’lum miqdorda bo‘lsada o‘qib olgach, ma’ruzachining tushuntirishlariga kam e’tibor berishadi. Shu sababli, agar oldin tushuntirib, keyin o‘quv-vizual materiallar orqali tushuntirish takrorlansa, eng yaxshi natijaga erishiladi.

**KEYS STADINI QO‘LLASH USLUBLARI VA VOSITALARI**

**Kurbanova Sh.I., t.f.n., dotsent**

**Toshken tibbiyot akademiyasi**

**Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrası**

**Tursunova G.O.**

**Zangiota Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi**

Keys – stadi-o‘quv uslub bo‘lib, u tashkilot, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat yoki talabalarni muommasini aniqlash va uni

***“Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari” mavzusidagi o‘quv-uslubiy anjuman***

maqsadga muvofiq yechish variantlarini qidirishga yo‘naltiruvchi, tashkiliy hayotda vujudga keladigan muammolarni aks ettiruvchi yasama vaziyatga asoslangan. Keys stadi talabalarda o‘rganilgan o‘quv kursi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashni, muammolarni taxlil qilish va qarorlarni yakka tartibda va guruhli qabul qilish ko‘nikmalarni egallashni, ijodiy va o‘rganish qobiliyatlar, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishni, yangilikka va qarorlarni mustaqil qabul qilishga tayyorgarlikni, mustaqillik, kommunikativlik, empatiya va refleksiyaning shakllanishini ta‘minlaydi.

Keys stadi uchun axborot yig‘ish usullariga intervyu olish, suhbat o‘tkazish, arxiv xujjatlarni o‘rganish, hisobotlarni o‘rganish kiradi. Axborot yig‘ish vositasiga so‘rovnoma varag‘i, intervyu olish varag‘i, anketa va har xil jadvallar kiradi. Bu o‘quv vaziyatning axborot manbaalariga statistik ma‘lumotlar, hisobotlar, obyekt faoliyati haqidagi ma‘lumotlar, internet va ommaviy axborot vositalaridan olingan ma‘lumotlar, talabarning o‘quv va diplom loyihalari, magistrlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar, monografiyalar kiritiladi.

Keysda muammoni berishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1-usul - muammoni keysolog tomonidan ifodalanishi;

2-usul- vaziyatdagi muammoni yaqqol ifodalanishi;

3-usul-matnda vaziyat subyektlari o‘rtasidagi ziddiyatni mavxum ifodalanishi.

Keysning kirish qismi ushbu komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- Keysning dolzarbligini asoslab berish;
  - Keysning ta‘lim maqsadi;
  - Keys yechish natijasida talabalar erishishi mumkin bo‘lgan o‘quv natijalari.
- Keysning pedagogik pasportida pedagogik annotatsiya, talabalarga beriladigan uslubiy ko‘rsatmalar, o‘qituvchi tomonidan keysni hal etish varianti, ta‘lim texnologiyasi beriladi. Pedagogik annotatsiyada keys uchun mo‘ljallangan fan, mavzu, ta‘lim darajasi, kurs ko‘rsatiladi. Shu bilan birga keysdan ko‘zlangan maqsad, talabalarni egallashi lozim bo‘lgan dastlabki bilim va malakalar, keysolog

***“Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning pedagogik jihatlari” mavzusidagi o‘quv-uslubiy anjuman***

tomonidan sun‘iy modellashtirilgan vaziyat haqidagi ma’lumot, manbaalar ro‘yxati, keysning o‘ziga xos belgilariga ko‘ra tavsifnomasi aks etadi.

Keys stadi qo‘lyozma yoki bosma qilingan variantida, elektron variantida, video variantida, audio va multimediya variantida rasmiylashtiriladi.

Individual auditoriyadan tashqari talabalar tomonidan keys stadini yechishda talaba avvalom bor keys materiallari bilan tanishadi, so‘ng taqdim etilgan vaziyatni o‘rganadi, izohlaydi va asoslaydi, yuzaga kelgan muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi, berilgan vaziyatni taxlil qiladi va muammoni hal etish usullari va vositalarni belgilaydi, asoslaydi, taklif etilgan qarorni amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqadi.

Jamoa bo‘lib auditoriyada talabalar tomonidan keys stadini yechishda esa talabalar kichik guruhlarga bo‘linib guruh a‘zolari vaziyat, taklif etilgan variantlarni muhokama qiladilar, baholaydilar, muammolar va ularni hal etish yo‘llari haqidagi tasavvurlarini kelishadilar, muammoli vaziyatni tanlangan harakat yo‘lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini ishlab chiqadilar, taqdimotga tayyorlanadilar va taqdimotni namaoyish etadilar. Taqdimot davomida boshqa guruh qatnashchilari berilgan savollarga javob beradilar va o‘z takliflarini aniqlashtiradilar.

Xulosa qilib aytish joiz-ki, hozirgi paytda respublikamizga kirib kelayotgan yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Shu bois, ta’lim muassasalarida talabalarning bilimi va mantiqiy fikrlashini va malakalarini oshirish, o‘quv jarayonini jadallashtirishning yetakchi yo‘nalishlarini o‘rganishni yanada puxtaroq yo‘lga qo‘yish asosiy masalalardan biridir.

## **MUNDARIJA**

<b>KREDIT-MODUL TIZIMIDA O‘QITISHNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI</b>	<b>3</b>
<i>Abdullayeva D.G.</i>	
<b>KREDIT-MODUL TIZIMINING TALABALAR UCHUN AFZALLIKLARI</b>	<b>4</b>
<i>Abdullayeva D.G.</i>	
<b>KREDIT-MODUL TIZIMIDA TANLOV FANLARINING KIRIB KELISHI</b>	<b>6</b>
<i>Abdullayeva D.G.</i>	
<b>YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA TALABALARNI O‘QITISH</b>	<b>7</b>
<i>Iskandarov A.B.</i>	
<b>NUKUS SHAHRI ATMOSFERA HAVOSINI AVTOTRANSPORT CHIQUINDILARI BILAN IFLOSLANISH HOLATI</b>	<b>8</b>
<i>Iskandarov A.B., Axmetova F.M.</i>	
<b>TALABALAR TOMONIDAN MAVZU MA’LUMOTLARINI QABUL QILISH VA O‘ZLASHTIRISH DARAJASI</b>	<b>10</b>
<i>Kurbanova Sh.I.</i>	
<b>KEYS STADINI QO‘LLASH USLUBLARI VA VOSITALARI</b>	<b>12</b>
<i>Kurbanova Sh.I., Tursunova G.O.</i>	
<b>EPIDEMIOLOGIYA FANINI O‘RGATISHDA KEYS – STADI INNOVATSION O‘QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</b>	<b>15</b>
<i>Rasulov Sh.M., Toshpo‘latov A.Y.</i>	
<b>GIGIYENA FANINI O‘QITISHDA O‘QUV KEYSLARINING AHAMIYATI</b>	<b>17</b>
<i>Salomova F.I., Sherqo‘ziyeva G.F.</i>	
<b>MEHNAT GIGIYENASI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH</b>	<b>19</b>
<i>Tashpulatova M.N.</i>	
<b>TIBBIY TA’LIMDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI</b>	<b>21</b>
<i>Tashpulatova M.N., Xodjayev A.Sh.</i>	
<b>TIBBIYOT FANLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O‘RNI</b>	<b>24</b>
<i>Toshpo‘latov A.Y., Rasulov Sh.M., Ibragimov A.U.</i>	
<b>ASSESSMENT TEXNOLOGIYASINI O‘QUV JARAYONIGA JORIY ETISHNING IJOBIY TA’SIRI</b>	<b>25</b>
<i>Chutboyev B.R., Soatova N.A., Rasulov Sh.M.</i>	
<b>SUV VA INSON SALOMATLIGI</b>	<b>27</b>
<i>Shatmanova Guli</i>	